



Tleuvova Gulmira Ospanovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
“Oilaviy huquq va gender tengligi” bo‘limi ilmiy xodimi

OILAVIY NIZOLARNI MEDIATSIYA USULIDA HAL QILISHDA MDH DAVLATLARINING TAJRIBALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiya usulidan foydalanishning afzal tomonlari MDH mamlakatlari misolida ochib berilgan. Shuningdek, oilaviy nizolarni bartaraf etishning alternativ yo‘llarini amaliyotda qo‘llash borasida e‘tibor qaratilishi hamda mamlakatimiz qonunchiligi tizimiga implementatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan jihatlar xususida ham so‘z yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье раскрываются преимущества использования метода медиации при решении семейных споров на примере стран СНГ. Также речь идет об аспектах, на которые можно обратить внимание и реализовать в правовой системе нашей страны относительно практического применения альтернативных способов устранения семейных споров.*

Annotation. *This article reveals the advantages of using the mediation method in solving family disputes on the example of the countries of the Commonwealth of Independent States. Also, it is discussed about the aspects that can be paid attention to and implemented in the legal system of our country regarding the practical application of alternative ways of eliminating family disputes.*

Tayanch so‘zlar: *oilaviy nizo, mediatsiya, mediator, mediativ kelishuv, mediatsiya instituti.*

Ключевые слова: *семейный спор, медиация, медиатор, медиативное соглашение, институт медиации.*

Keywords: *family dispute, mediation, mediator, mediation agreement, mediation institute.*

Kirish. Oilaviy mediatsiya oilaviy nizolarni hal etishning samarali va konstruktiv usuli sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan muqobil varianti hisoblanadi. Xorijda oilaviy nizolarni hal qilishda ushbu usuldan keng foydalanib kelinmoqda. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarning bu borada o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, MDH davlatlarida oilaviy nizolarni hal qilishda mediativ kelishuvga erishishda ikki jihatga e'tibor qaratish lozim.

1) mazkur mamlakatlar uchun mediatsiya instituti va uning amaliyoti yuridik nuqtayi nazardan chetdan kirib kelgan institut hisoblanadi;

2) MDH davlatlari hududida azaldan shakllangan oilaviy munosabatlar tizimida turli ko'rinishda yarashtirish va nizolarni hal qilish usullari azaldan bo'lgan.

Maqsad va uni asoslash. Rossiyada nizolarni mediator ishtirokida o'zaro maqbul shartlarda hal qilish imkoniyatini beruvchi qonuniy asos sifatida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik, Oila, Mehnat Kodekslari va 2010-yil 27-iyuldagi 193-FZ-sonli «Nizolarni mediator ishtirokida hal qilishning muqobil tartibi to'g'risida»gi *Federal Qonuni (mediatsiya tartibi)* qabul qilingan. Mediatsiyaning asosiy maqsadi yarashuv emas, balki haqiqatan ham samarali kelishuvlarga erishishdir. Mediator 18 yoshdan katta, vositachilik va nizolarni hal qilish ko'nikmalariga ega, qobiliyatli, sudlanmagan fuqaro bo'lishi kerak¹. Qonunga ko'ra, mediator ishtirokida taraflar o'zaro kelishuvga erishishlari uchun fuqarolik, mehnat va oilaviy nizolarda mediatsiya tartibi qo'llanilishi mumkin. Jarayon suddan tashqarida ham, sud muhokamasi paytida ham amalga oshirilishi mumkin.

Ammo ushbu qonunning amal qilish muddati ancha uzoq bo'lishiga qaramay, Rossiyada oilaviy mediatsiya hali ham keng qo'llanilmaydi. Bu quyidagi omillarga bog'liq:

- *professional mediator xizmatlarining sezilarli narxi;*
- *“Mediatsiya tartibi to'g'risida”gi Qonun hujjatlaridagi kamchiliklar;*
- *ixtisoslashtirilgan davlat mediatsiya markazlarining yo'qligi. Fuqarolar mediatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi “ofislar”ga ishonmaydi va xususiyl mediatorlar xizmatiga kamdan-kam murojaat qiladi;*
- *targ'ibotning yetishmasligi. Afsuski, oiladagi nizoni hal qilish uchun mediatsiyaga murojaat qilish mumkinligini hamma ham bilmaydi.*

Qonunga ko'ra, mediator ishtirokida taraflar o'zaro kelishuvga erishishlari uchun fuqarolik, mehnat va oilaviy nizolarda mediatsiya tartibi qo'llanilishi mumkin. Jarayon suddan tashqarida ham, sud muhokamasi paytida ham amalga oshirilishi mumkin.

¹ Oilaviy nizolar: Mediatsiyaning oilaviy nizolarda qo'llanilishi nomli internet maqolasi // <https://xn--80aidamjr3akke.xn--p1ai/articles/ssory-v-seme-mediatsiya-v-semeinyx-otnoseniyax>

**Rossiya
Federatsiyasi
Ta'lim va fan
vazirligining 2011-
yil 14-fevraldagi
"Mediatorlarni
kasbiy tayyorlash
dasturini tasdiqlash
to'g'risida"gi
187-sonli buyrug'i
ixtisoslashtirilgan
mutaxassislarni
tayyorlashga
qo'yiladigan
talablarni
belgilaydi.**

Mediatsiya tartib-taomili natijalari bo'yicha quyidagi mediatsiya bitimlari tuziladi:

- ✓ *boladan alohida yashovchi ota-onaning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibini nazarda tutuvchi shartnoma;*
- ✓ *yozma shaklda tuzilgan va notarial tasdiqlangan nikoh shartnomasi;*
- ✓ *turmush o'rtoqlarning umumiy mulkni bo'lish to'g'risidagi shartnomasi;*
- ✓ *aliment to'lash to'g'risidagi shartnoma, ularni to'lashning miqdori, shartlari va tartibini belgilovchi, notarial tasdiqlanishi kerak².*

Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vazirligining 2011-yil 14-fevraldagi "Mediatorlarni kasbiy tayyorlash dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli buyrug'i ixtisoslashtirilgan mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Mediatorlarni kasbiy tayyorlash dasturi namunaviy o'quv dasturi sifatida taqdim etilgan va o'z ichiga asosiy vositachilik kursi, amaliy dasturlar va mediator trenerlarini tayyorlash kursidan iborat bir qator ta'lim dasturlarini oladi³. Mazkur buyruq malaka oshirish bo'yicha uchta asosiy ta'lim dasturi bo'yicha mediatorlarni tayyorlash jarayonini nazarda tutadi: "Mediatsiya. Asosiy kurs", "Mediatsiya. Mediatsiyadan foydalanish xususiyatlari", "Mediatsiya. Mediator-trenerlar uchun trening kursi". Barcha o'quv dasturlari o'quv jarayonini tugatganligini bildiradigan sertifikatlash va ta'lim dasturlarini to'liq tugatganligini tasdiqlovchi hujjatni berish bilan yakunlanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va uning yechimi. Mediatorlar va mediatsiya xizmatlari rahbarlari uchun Mediatsiya standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular Butunrossiya mediatsiya uyushmasi tomonidan tasdiqlangan. Ular qo'llanma va ma'lumot manbasi sifatida qo'llaniladi.

Ayni paytda Belarus Respublikasida davlat tomonidan mediatsiya qo'llab-quvvatlanadi. 2014-yil 24-yanvarda Belarus Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi. Ushbu mamlakatda 24-yanvar Mediatsiya kuni deb e'lon qilindi. 2015-yildan respublikada bir qancha yo'nalishlarni kompleks rivojlantirish, yuqori malakali oilaviy mediatorlarni tayyorlashga qaratilgan "Oilaviy mediatorlik" loyihasi ishga tushirilgan. Mazkur loyihaning o'ziga xosligi shundaki, unda

² Курмаева Н. Преимущества и недостатки семейной медиации в России // Вопросы экономики и права. 2019, № 6 (132) – С. 16.

³ Воробьева А. Семейная медиация: правовой и педагогический аспекты. Выпускная квалификационная работа. Екатеринбург 2023. – С. 28. // <http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/17705/2/2023Vorobyeva.pdf>

Yevropa Ittifoqi tajribasi – huquqshunoslar va psixologlar hamkorligidan foydalaniladi. Bu jarayon Yevropa amaliyotida “komediatsiya” deb ataladi.

“Belarus Respublika advokatlar ittifoqi” jamoat birlashmasi Oliy Xo‘jalik sudi ko‘magida “Belarus Respublika advokatlar ittifoqi” jamoat birlashmasi Ijroiya qo‘mitasi qarori bilan tasdiqlangan dasturlar bo‘yicha mediatorlarni tayyorlaydi. Agar 2015-yilda Belarus Respublikasida atigi 131 nafar mediator bo‘lgan bo‘lsa, 2016-yilda ularning soni 393 nafarga yetdi. Biroq Belarus ilmiy hamjamiyati oilaviy mediatsiyani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada oshirish zarurligini ta’kidlamogda⁴.

Belorussiya Respublika Advokatlar Ittifoqining Nizolarni hal qilish markazi 2010-yilda tashkil etilgan. Markazda Sankt-Peterburg, Kiyev va AQShda tahsil olgan 20 ta mediator faoliyat yuritadi. Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qatoriga Belarus Respublikasida mediatsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari va Internet orqali tarqatish, mediatsiyani amalga oshirish standartlari va mediatorlarning axloqiy xulq-atvorini tartibga soluvchi hujjatlarni ishlab chiqish; mediatsiya bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish; sudda ko‘rib chiqilayotgan nizolarni mediatsiya tartibida hal etish maqsadida adliya organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish kiradi. Ushbu maqsadlar uchun ixtisoslashtirilgan www.mediacia.by veb-sayti yaratilgan.

Belarus Respublikasida nikoh va oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiyadan foydalanish quyidagi hollarda mumkin:

1. Ajrashish jarayonida. Belarus Respublikasining Nikoh va oila to‘g‘risidagi kodeksining 36-moddasiga ko‘ra, ajrashish to‘g‘risidagi da’voni qabul qilganda, sud er-xotinlarga yarashish choralarini ko‘rish uchun uch oylik muddat beradi, shuningdek, umumiy voyaga etmagan bolalar va mulkni taqsimlash bo‘yicha kelishuvga erishishda ham. Da’voni ko‘rib chiqishda sud oilani saqlab qolishga qaratilgan choralarni ko‘radi va ishni ko‘rishni kechiktirishga, er-xotinga yarashish uchun olti oy ichida qo‘shimcha muddat belgilashga haqli.

2. Er-xotinlar mulkini taqsimlashda. Bu masalada mediatorning roli juda muhim, chunki sud er-xotinning manfaatlari va istaklarini inobatga olgan holda mulkni teng ulushlarga bo‘lish juda qiyin;

3. Bolalar to‘g‘risida shartnoma tuzishda. Ajrashishda, agar er-xotinning voyaga yetmagan bolalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini

Belorussiya Respublika Advokatlar Ittifoqining Nizolarni hal qilish markazi 2010-yilda tashkil etilgan. Markazda Sankt-Peterburg, Kiyev va AQShda tahsil olgan 20 ta mediator faoliyat yuritadi.

⁴ Здрок О. Н. Семейная медиация: мировой опыт и перспективы развития в Республике Беларусь. / О. Н. Здрок // Право в современном белорусском обществе. – Минск: Бизнесофсет, 2015. – С. 316-323.

“Oilaviy mediatsiya” loyihasi nisbatan mustaqil, lekin ayni paytda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan uchta yo‘nalishni amalga oshirishni nazarda tutadi. Avvalo, mediatsiya sohasida ta’lim olgan shaxslar o‘z malakalarini oshirishlari va oilaviy mediatorlar malakasini oshirishlari uchun rag‘batlantiriladi.

belgilovchi nikoh shartnomasi ilgari tuzilmagan bo‘lsa yoki er-xotinlar bolalarga nisbatan mustaqil ravishda shartnoma tuzmagan bo‘lsa, sud bolalarning qaysi ota-onasida qolishini, ularni tarbiyalashda alohida ota-onaning ishtirok etish tartibini aniqlash.

Bular Belarus Respublikasida Oilaviy mediatsiya o‘quv-amaliy “Mediatsiya va huquq” markazining yangi loyihasida o‘z aksini topgan. “Oilaviy mediatsiya” loyihasi 2015-yil boshida boshlangan. Loyiha keng qamrovli xususiyatga ega bo‘lib, Belarus Respublikasida yuqori malakali oilaviy mediatorlar korpusini tayyorlashga qaratilgan bir nechta yangi yo‘nalishlarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishni nazarda tutadi.

“Oilaviy mediatsiya” loyihasi nisbatan mustaqil, lekin ayni paytda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan uchta yo‘nalishni amalga oshirishni nazarda tutadi. Avvalo, mediatsiya sohasida ta’lim olgan shaxslar o‘z malakalarini oshirishlari va oilaviy mediatorlar malakasini oshirishlari uchun rag‘batlantiriladi. Trening oilaviy vositachi sifatida ishlashda talab qilinadigan muayyan maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan 3-5 ta mustaqil treninglar seriyasidan iborat bo‘ladi. “Oilaviy mediatsiya” loyihasi doirasidagi ikkinchi yo‘nalish yuridik fanlardan tashqari oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslarni mediatsiya sohasida o‘qitish va faoliyatga kengroq jalb etish bilan bog‘liq. “Oilaviy mediatsiya” loyihasi doirasidagi uchinchi yo‘nalish aniq amaliy xarakterga ega. Maqsad - oilaviy mediatsiya bo‘yicha o‘qitilgan mutaxassislarni Markazda haqiqiy ish joyi bilan ta’minlash⁵.

Minskda 2017-yil noyabr oyidan boshlab ajralishlar sonini kamaytirishga qaratilgan “Minsk shahrida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari ishida mediatsiya vositalaridan foydalanish” pilot loyihasi ishlamoqda. Loyiha Minsk shahar ijroiya qo‘mitasining bosh adliya boshqarmasi, poytaxt FHDY bo‘limlari Belarus Respublikasi Advokatlar uyushmasi va “Mediatsiya va huquq markazi” o‘quv-amaliy muassasasi bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida FHDY xodimlarini oilaviy mediatsiya bo‘yicha o‘qitishda o‘quv dasturi ishlab chiqilgan⁶.

Qozog‘iston Respublikasida 25 yoshga to‘lgan, oliy ma’lumotga ega, hukumat tomonidan belgilangan dastur bo‘yicha o‘qishni tamomlagan, professional mediatorlar reestrda turgan shaxs yoki iste’fodagi sudya

⁵ Belorusiyada mediatsiya institute haqida internet maqolasi // <https://cyberleninka.ru/article/n/semeynaya-mediatsiya-v-grazhdanskom-protse-sse-respubliki-belarus>

⁶ Станишевская Л. Семейная медиация в Республике Беларусь: итоги и перспективы актуальные проблемы. Конференция на тему Сравнительного правоведения: правовая система и современное государство. — Симферополь, 16 апреля 2020 года. — С. 69. // <https://elibrary.ru/item.asp?id=43043299>

mediator bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mediatorlar nafaqat o'qitilgan mutaxassislar, balki 40 yoshdan oshgan oddiy shaxslar ham bo'lishi mumkin, chunki mamlakat nizolarni, shu jumladan, oilaviy nizolarni oqsoqollar tomonidan hal etish bo'yicha tarixiy tajribaga asoslanadi. Shuningdek, ma'lum bir respublikada mahalliy yig'ilish tomonidan saylanadigan shaxslar mediatorlar bo'lishi mumkin. Masalan, Qozog'iston Respublikasida oilaviy vositachilik tartibi Rossiyanikiga qaraganda jiddiyroq vakolatga ega. Mediatorlarga hatto yirik mulkiy nizolar bilan murakkablashgan oilaviy nizolar ham ishonib topshiriladi.

Mediatsiya institutini Qozog'iston qonunchiligiga integratsiyalashuvi Qozog'iston Respublikasining 2010–2020-yillarga mo'ljallangan huquqiy siyosati konsepsiyasi (*Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 24-avgustdagi 858-son Farmoni bilan tasdiqlangan*) asosida amalga oshirildi. Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 17-avgustdagi 1039-sonli “Qozog'iston Respublikasida huquqni muhofaza qilish organlari va sud-huquq tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni tomonlar o'rtasida murosaga erishishning turli usullarini ishlab chiqish rejalashtirilgan edi, shu jumladan mehnat va xususiy huquq nizolari sohasida ham sudda, ham suddan tashqari⁷.

2011-yilda Qozog'istonda mediatsiya bo'yicha maxsus qonun hujjatlari qabul qilindi: 2011-yil 28-yanvardagi “Mediatsiya to'g'risida”gi 401-IV-sonli Qonun (*2011-yil 28-yanvardagi № 201-son Qonuni. 402-IV QRQ “Qozog'iston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mediatsiya masalalari bo'yicha o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qarori (keyingi o'rinlarda 402-IV QRQ deb yuritiladi).* 401-IV-sonli Qonun asosida Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2011-yil 3-iyuldagi 770-son qarori bilan *Mediatorlarni tayyorlash dasturini to'ldirish qoidalarini* tasdiqlangan. 401-IV-sonli Qonun mediatorlik faoliyatini qo'llash sohasini, ish yuritish tamoyillari va qoidalarini, mediatorlarning maqomi va ularga qo'yiladigan talablarni, ularning huquq va majburiyatlarini, taraflarning huquq va majburiyatlarini, mediatorlar faoliyatini tashkil etishning xususiyatlari, mediatorlar reyestrini yuritish, jinoyat protsessi sohasidagi fuqarolik, mehnat, oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlar sohasida mediatsiyani, mahalliy hamjamiyat a'zolari tomonidan o'tkaziladigan mediatsiyani tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, mediatsiya natijasida tuzilgan bitimni tartibga solishning

Qozog'iston Respublikasida oilaviy vositachilik tartibi Rossiyanikiga qaraganda jiddiyroq vakolatga ega. Mediatorlarga hatto yirik mulkiy nizolar bilan murakkablashgan oilaviy nizolar ham ishonib topshiriladi.

⁷ Qozog'istonda mediatsiya instituti haqida internet maqolasi // <https://www.sovremennoepravo.ru/>

Qirg'iziston Respublikasida ham maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan shaxs 40 yoshdan oshgan va jamiyatda obro'ga ega bo'lsa, vositachi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mediator kamida 25 yoshga to'lgan, oliy ma'lumotli va mediatsiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

o'ziga xos xususiyatlari, mediatorlarning huquqlari va majburiyatlarini tartibga soladi.

Qozog'iston Respublikasining 2011-yil 28-yanvardagi "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni mediatorlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Bularga, agar Qozog'iston qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kichik va o'rtacha og'irlikdagi jinoyatlar bo'yicha jinoiy ish yuritishda ko'rib chiqilgan nizolar ham kiradi. Tomonlardan biri davlat organi bo'lsa, mediatsiya tartibi qo'llanilmaydi⁸.

Qirg'iziston Respublikasida ham maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan shaxs 40 yoshdan oshgan va jamiyatda obro'ga ega bo'lsa, vositachi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mediator kamida 25 yoshga to'lgan, oliy ma'lumotli va mediatsiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, mediatorlar va davlat organlari hamkorligining ijobiy tajribasi mavjud. Bu afzallik Qirg'iziston Respublikasining 2017-yil 22-iyundagi "Mediatsiya to'g'risida"gi 161-sonli Qonuni tufayli yuzaga keldi. Qirg'izistonda mediatsiya jarayoniga inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, jumladan, xalqaro tashkilotlar ham jalb etilgan. Mediatsiya va huquqiy texnologiyalar markazi oilaviy mediatsiya tartiblarini rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Qirg'izistonda fuqarolik, oilaviy va mehnat nizolarini, shuningdek, jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda mediatsiyadan foydalanish mumkin⁹.

Qirg'iziston Respublikasida to'rt yil davomida ikki ming kishi huquqiy nizoni sudga bormasdan tinch yo'l bilan hal qilgan. Bunga 2018-yil fevral oyida qonun qabul qilingan Mediatsiya instituti yordam berdi. 2008-yilda mediatsiya fuqarolik nizolarini hal qilish varianti sifatida ko'rib chiqila boshlandi. 2010-yilda mediatsiyadagi mediaotlik orqali yirik xalqaro donorlar Qirg'iziston janubidagi millatlararo to'qnashuvlardan so'ng tinchlikni tiklashga hissa qo'shishga harakat qilishdi.

"SEZIM" krizis markazi 1998-yildan buyon faoliyat olib keladi va Qirg'izistondagi birinchi krizis markazlari va notijorat tashkilotlardan biri hisoblanadi. 90-yillarda Qirg'izistonda gender va oilaviy zo'ravonlik muammolari chuqur yashirin va jamoatchilik va siyosiy muhokamalar uchun yopiq bo'lib, bir qator paydo bo'lgan jamoat tashkilotlari mamlakatda ayollar huquqlarini himoya qilish masalalarini faol ravishda ko'tara boshladilar. "Sezim" markazi faoliyatiga oilaviy

⁸ Mediatsiya: xalqaro tajriba nima deydi? Nomli internet maqolasi // https://www.norma.uz/nashi_obzori/mediaciya_o_chem_govorit_zarubejnyy_opyt

⁹ Qirg'izistonda mediatsiya instituti haqida internet maqolasi // <https://mediation-eurasia.pro/mediaciya-v-strane/kyrgyzstan/#:~:text=>

mediatsiya amaliyotini joriy etish bo'yicha birinchi qadam tashlandi. Shveytsariyaning Qirg'izistondagi elchixonasi ko'magida "Sezim" markazida markaz xodimlari, ko'ngillilari va hamkorlaridan 15 nafari 5 kunlik "Mediatsiya. Asosiy kurs" seminar-trening o'quv dasturidan o'tishdi.

Mazkur trening "Sezim" markazi faoliyatiga oilaviy mediatsiya amaliyotini joriy etishdagi birinchi muhim qadamdir. "Sezim" markazida nizolarni suddan tashqari tinch yo'l bilan hal etishning muhim va zarur xizmati sifatida oilaviy mediatsiyani o'rgatish va amaliyotga joriy etishga uzoq vaqtdan beri tayyorgarlik ko'rilgan¹⁰.

2018-yil 3-may kuni bo'lib o'tgan ta'sis yig'ilishida Qirg'iziston Respublikasi mediatorlari "Qirg'iziston Respublikasi Mediatorlar Respublika hamjamiyati" jamoat birlashmasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildilar. Ushbu jamiyating missiyasi Qirg'iziston Respublikasida fuqarolarning o'z manfaatlariga mos keladigan nizolarni hal etishning nodavlat mexanizmi sifatida mediatsiyadan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun yuqori sifat standartlariga ega mediatsiya madaniyatini shakllantirish va mediatsiyaga murojaat qilgan fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi samarali tizimni shakllantirish.

Respublika hamjamiyatining asosiy vazifalari:

- mediatsiya sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- mediatorlarni tayyorlash standartlari va namunaviy dasturlarini takomillashtirish;
- mediatorlar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda mediatorlarning kasbiy manfaatlarini ifodalash;
- aholini mediatsiya instituti haqida xabardor qilish;
- maslahat faoliyatini tashkil etish va mediatsiya ko'nikmalarini oshirishda amaliy yordam ko'rsatish¹¹.

Ukraina Konstitutsiyasining 55-moddasi ko'ra, har kimga o'z huquq va erkinliklarini qonun bilan taqiqlanmagan har qanday vositalar bilan buzilishlar va noqonuniy hujumlardan himoya qilish huquqi berildi. Ukraina Oila kodeksining 7-moddasiga muvofiq, oilaviy munosabatlar ishtirokchilari ularni kelishuv yoki sudga murojaat qilish orqali hal qilish huquqiga ega.

Ko'pgina fuqarolar uchun sud jarayoni barcha kelishmovchiliklarni yakuniy hal qilishning yagona ma'lum varianti bo'lib qolishiga qaramay,

Mazkur trening "Sezim" markazi faoliyatiga oilaviy mediatsiya amaliyotini joriy etishdagi birinchi muhim qadamdir. "Sezim" markazida nizolarni suddan tashqari tinch yo'l bilan hal etishning muhim va zarur xizmati sifatida oilaviy mediatsiyani o'rgatish va amaliyotga joriy etishga uzoq vaqtdan beri tayyorgarlik ko'rilgan

¹⁰ Sezim ijtimoiy moslashuv markazi haqida ma'lumot // <https://sezim.org/sdelan-pervyj-shag-po-vnedreniyu-prakti/>

¹¹ Qirg'iziston Mediatorlar assotsiatsiyasi veb-sahifasi // <https://mediator.kg/#>

***Ukraina
Ijtimoiy siyosat
vazirligining 2016-
yil 17-avgustdagi
892-son buyrug'i
bilan "Mediatsiya
(mediatsiya)
ijtimoiy
xizmatining
davlat standartini
tasdiqlash
to'g'risida"gi
Qonunida har
kimning nizoni
tinch yo'l bilan
hal etish usuli
sifatida mediatsiya
xizmatlaridan
foydalanish huquqi
belgilangan***

mediatsiya nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida tobora ommalashib bormoqda.

Ukraina 2020-yil 15-iyulda Ukraina Oliy Radasi "Mediatsiya to'g'risida"gi 3504-sonli qonun loyihasini asos sifatida qabul qildi. Uning maqsadi qonunchilik bazasini, mediatsiyani o'tkazish tartibini qonunchilikni shakllantirishdan iborat bo'lib, nizolarni hal qilish va uning ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash uni hal qilishning muqobil usuli sifatida qabul qildi. Mazkur loyihaning 2-moddasida mediatsiyani qo'llashning mumkin bo'lgan sohalari belgilab qo'yilgan bo'lib, ular qatorida oilaviy huquqiy munosabatlar doirasida yuzaga keladigan nizolarni ham o'z ichiga oladi. Ukrainaning "Mediatsiya to'g'risida"gi 3504-sonli Qonuni loyihasida oilaviy huquqiy munosabatlarda mediatsiyaning majburiy xususiyati belgilanmaganiga qaramay, uning Yakuniy qoidalarida bunday tartibdan foydalanish uchun ma'lum imtiyozlar va uni amalga oshirishning protsessual imkoniyatlari ko'zda tutilgan¹². Ukraina Ijtimoiy siyosat vazirligining 2016-yil 17-avgustdagi 892-son buyrug'i bilan "Mediatsiya (mediatsiya) ijtimoiy xizmatining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonunida har kimning nizoni tinch yo'l bilan hal etish usuli sifatida mediatsiya xizmatlaridan foydalanish huquqi belgilangan¹³.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha kengash tegishli qonun kuchga kirgan va unga muvofiq 2022-yil 1-sentabrdan boshlab oilaviy mediatsiya xizmatini taklif qililmoqda. Birinchi yil davomida 667 oila bu xizmatdan unumli foydalandi. 667 ta oiladan 524 nafari o'zlari bo'limga murojaat qilgan bo'lsa, 143 nafar er-xotin sud tomonidan mediatsiyaga yuborilgan. 217 nafar bolaning ota-onasi (146 ta oila) muvaffaqiyatli natijaga erishdi. Shulardan 23 ta oila sud tomonidan mediatsiyaga yo'naltirilgan bo'lsa, 123 nafar er-xotinning o'zlari ushbu xizmatga murojaat qilgan. O'rta hisobda oilalar shartnoma tuzishdan oldin uch oy davomida vositachi bilan 4-5 marta uchrashgan¹⁴.

Xulosa. So'nggi yillarda oilaviy nizolar shaxsiy qadriyatlar va maqsadlardagi farqlar, noto'g'ri tushunish va kelishmovchiliklarni olib kelishi mumkin, ular ko'pincha aralashuvni talab qiladigan jiddiy muam-molarga aylanishi mumkin. Bunday nizolarni sud orqali hal qilishning

¹² Н.Буров Семейная медиация как альтернатива суду nomli internet maqolasi // <https://de-jure.ua/ru/semeynaya-mediatsiya-kak-alternativa-sydy/>

¹³ Головченко А. Роль семейной медиации в эффективности разрешения семейных споров nomli internet maqolasi // <https://ru.rtp.com.ua/articles/rol-semejnoj-mediatsii-v-effektivnosti-razresheniya-semejnyh-sporov/>

¹⁴ Oilaviy mediatsiyaning oilaviy nizolarni hal qilishdagi ulushi haqida rasmiy ma'lumot // <https://rus.err.ee/1609089617/uslugo-j-gosudarstvennoj-semejnoj-mediatsii-za-god-vospolzovalis-667-semej>

an'anaviy usuli ko'pincha uzoq, qimmat va barcha ishtirokchilar uchun noxush holatlarni yuzaga keltiradi. Bu yerda oilaviy mediatsiya – o'zaro maqbul yechimlarga erishish va munosabatlarda uyg'unlikni saqlashga qaratilgan nizolarni hal qilishning muqobil usuli o'z ahamiyatini ko'rsatadi. Ayniqsa bu borada ilg'or xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish va uning milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish mediatsiya institutini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Здрок О. Н. Семейная медиация: мировой опыт и перспективы развития в Республике Беларусь. / О. Н. Здрок // *Право в современном белорусском обществе*. – Минск: Бизнесофсет, 2015.
2. Oilaviy nizolar: Mediatsiyaning oilaviy nizolarda qo'llanishi nomli internet maqolasi // <https://xn--80aidamjr3akke.xn--plai/articles/ssory-v-seme-mediatsiya-v-semeinix-otnoseniyax>
3. Курмаева Н. Преимущества и недостатки семейной медиации в России // *Вопросы экономики и права*. 2019, № 6 (132).
4. Воробьева А. Семейная медиация: правовой и педагогический аспекты. Выпускная квалификационная работа. Екатеринбург 2023 // <http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/17705/2/2023Vorobyeva.pdf>
5. Belorusiya mediatsiya instituti haqida internet maqolasi // <https://cyberleninka.ru/article/n/semeynaya-mediatsiya-v-grazhdanskom-protssesse-respubliki-belarus>
6. Станишевская Л. Семейная медиация в республике беларусь: итоги и перспективы актуальные проблемы. Конференция на тему Сравнительного правоведения: правовая система и современное государство Симферополь, 16 апреля 2020 года. // <https://elibrary.ru/item.asp?id=43043299>
7. Qozog'istonda mediatsiya instituti haqida internet maqolasi // <https://www.sovremennoepravo.ru/>
8. Mediatsiya: xalqaro tajriba nima deydi? Nomli internet maqolasi // <https://www.norma.uz/nashi-obzori/mediatsiya-o-chem-govorit-zarubejnyy-opyt>
9. Qirg'izistonda mediatsiya instituti haqida internet maqolasi // <https://mediation-eurasia.pro/mediatsiya-v-strane/kyrgyzstan/#:~:text=>
10. Sezim ijtimoiy moslashuv markazi haqida ma'lumot // <https://sezim.org/sdelan-pervyj-shag-po-vnedreniyu-prakti/>
11. Qirg'iziston Mediatorlar assotsiatsiyasi veb-sahifasi // <https://mediator.kg/#>
12. Н.Буров Семейная медиация как альтернатива суду nomli internet maqolasi // <https://de-jure.ua/ru/semeynaya-mediatsiya-kak-alternativa-sydy/>
13. Головченко А. Роль семейной медиации в эффективности разрешения семейных споров nomli internet maqolasi // <https://ru.rtp.com.ua/articles/rol-semejnoj-mediatsii-v-effektivnosti-razresheniya-semejnyh-sporov/>
14. Oilaviy mediatsiyaning oilaviy nizolarni hal qilishdagi ulushi haqida rasmiy ma'lumot // <https://rus.err.ee/1609089617/uslugo-j-gosudarstvennoj-semejnoj-mediatsii-za-god-vospolzovavshis-667-semej>